

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



O`ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INNOVATSION FAOLIYATNING TAHLILI

Eshtemirova Anora

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya
Universiteti Tashqi Iqtisodiy Faoliyat
Magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Global mashhuv davrida mamlakatning o'sishi, farovonligi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi uning qay darajada texnologik innovatsion salohiyati bilan chambarchas bog'liqligi haqida yoritib berildi. Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlanirishda asosiy drayverlarining ta'sirlari haqida o'r ganildi va xulosalar berib o'tildi.

Kalit so`zlar: Innovatsiyalar, global mashhuv, raqobatbardoshlilik, innovatsion salohiyat, "Innovatsion rivojlanish vazirligi", innovatsion g'oyalar, innovatsion faoliyat.

Innovatsiyalar kompaniyalar, tashkilotlar va hatto butun mamlakatlarning omon qolishi va rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi u taraqqiyotga turtki beradi, butun iqtisodiy tizimni sifat jihatidan takomillashtirish, yangi ta'sirlarni amalga oshirish va shu yo'l bilan chinakam yangilanadigan o'zgarishlarni amalga oshirishga yangi imkoniyatlar ochadi va murakkab muam-molarni bir paytlar tasavvur qilib bo'lmaydigan usullar bilan hal qilish imkonini beradi. Bugungi dunyo har doimgidek tez va o'zgaruvchan, shu sababli inno-vatsiyalar har qachongidan ham muhimroqdir. Busiz kompaniyalar raqobat-chilardan ortda qolish xavfiga duch kelishadi va mamlakatlar eng so'nggi tex-nologik yutuqlardan xabardor bo'lish uchun kurash olib borishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e'tirof etilgan. "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi."¹


Shubhasiz, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Innovatsiyalarsiz uning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish mumkin emasligi tobora oydinlashib bormoqda. Zamonaviy rivojlanishda ushbu masalalarni hal etishda avvalambor, tadqiqotlar olib boradigan, yuqori bilim va tajribaga ega bo`lgan raqobatdosh kadrlar zarur. Mamlakatimizda ushbu maqsadda oliygochlар sonini 191 taga yetkazildi. 2018

¹ <https://yuz.uz/uz/news/innovatsiya--biz-yoshlarni-kelajakni-yaratishga-ruhlantirmoqda>

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



yilda respublikamizdagi oliygochlarning soni 98 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o'sishga erishildi. Keyingi besh yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirildi.



1-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari soni²


Davlatimiz rahbarining 2017 yil 29 noyabrdagi qarori bilan mamlakatimizda ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish jarayonlarini tatbiq etish maqsadida “Innovatsion rivojlanish vazirligi” tashkil etilgan bo‘lib, mazkur Farmonda innovatsiyalarning barqaror yo‘nalishlari belgilab berilgan. Xususan, ushbu huquqiy hujjatda global ilm-fan innovatsiyalari va yutuqlarini qamrab olish jamiyat va davlat boshqaruvining barcha sohalarini har tomonlama va barqaror o’sishi uchun asos bo‘lib qolgani alohida ta’kidlangan. Innovatsion rivojlanish va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi farmon muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki u tadqiqotlarni integratsiyalash va ularni amaliy qo‘llashga yo‘naltirish imkonini berdi. Bu, shuningdek, ixtisoslashtirilgan ilmiy laboratoriylar, texnologiya markazlari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishga olib keldi. Mazkur farmon startaplarga imtiyozli xizmatlar (axborot, huquqiy va h.k.) ko‘rsatuvchi texnoparklar, inkubatorlar, akseleratorlar, texnoparklar tashkil etishga asos bo‘ldi. Bundan tashqari innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida yana bir qator Qaror va Farmonlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5544-sonli, 2021 yil 1 apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6198 sonli Farmonlariga, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 noyabrdagi “Ilmiy-tadqiqot

² <https://siat.stat.uz/>

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT




muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3365-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3416 - sonli, 2018 yil 27 aprelda «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-3682-sonli Qarorlari hamda 2020 yil 24 iyuldagи O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi O'RQ-630-sonli Qonuni bunga yaqqol misol bo`la oladi.



2-rasm. Joriy qilingan innovatsiyalar soni³

Joriy qilingan innovatsiyalar soni bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich 2019 yilda (4689 ta) kuzatilgan bo`lib, 2020-2022 yilda bu ko`rsatkich bo`yicha pasayish kuzatilgan.



3-rasm. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrutorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni⁴


³ <https://siat.stat.uz/>

⁴ <https://siat.stat.uz/>

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni bo`yicha yuqori nuqta 2018 yilda (668 ta) qayd etilgan, 2013-2016 yillar mobaynida (360-437 ta) o`sish tendensiyasi kuzatilgan, ammo 2019-2022 yillarda ushbu ko`rsatkichda salbiy tendensiya (668-262 tagacha pasayish) kuzatilgan. Raqamlardan ko`rinib turibdiki, joriy qilingan innovatsiyalar soni, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni o`tgan yillar davomida barqaror rivojlanish kasb etmayapti. Bu esa korxonalarining innovatsion faoliyati har doim barqaror emasligi, moliyalashtirish tizimi va resurslar ta`minotining uzviyligining ta`minlanmaganligi bilan bog`liqdir. Mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishish uchun yana bir zarur omillardan biri sifatida professional kadrlar va biznes muhiti, texnologiya, bilim va yuqori sifatli kadrlar kerak. 4 -rasm ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar bilan band bo`lgan xodimlar soni 2015-2017, 2022 yillarda eng yuqori 36,8-37,2 ming kishi, 2020 yilda eng past 30,3 ming ta xodim faoliyat olib borib, qolgan yillarda esa xodimlar soni pasayishi va ko`tarilishi kuzatilgan.



4-rasm. Ilmiy tadqiqot va tajriba konsruktorlik ishlanmalar bilan band bo`lgan xodimlar soni⁵

Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlariga ko`ra, 2018-yil holatiga ko`ra 0,12%, 2019 yil 0,11%, 2020 yil 0,14% va 2021- yil 1- yanvar holatiga ko`ra mamlakatimizda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga ajratilgan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati 0,14% ni tashkil etdi. Fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda iqtisodiyotning real sektoriga, ijtimoiy va boshqa sohalarga innovatsiyalarni jadal joriy etish O`zbekistonni jadal rivojlantirishning

⁵ <https://siat.stat.uz/>

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



muhim shartidir. Buni O‘zbekiston Global Innovatsiyalar indeksi (GII) reytingiga qaytgani ham tasdiqlaydi.

	GII reytingidagi o`rni	Innovatsiyalar kiritish indikatori	Innovatsiyalar chiqari sh indikatori
2020	93-o`rin	93-o`rin	118-o`rin
2021	86-o`rin	93-o`rin	100-o`rin
2022	82-o`rin	93-o`rin	91-o`rin
2023	82-o`rin	93-o`rin	88-o`rin

*Mazkur jadval Global Innovation Index (GII) 2023 ma`lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadvalda O‘zbekistonning so‘nggi to‘rt yildagi reytingi keltirilgan. Agar raqamlarga murojaat qilsak, GII ning 2023-yil reytingida O‘zbekiston 132 ta davlatlar orasida 82 o`rinni saqlab qoldi. O‘zbekiston 2023-yilda innovatsiyalar kiritish indikatori bo‘yicha 72-o‘rinni egalladi. Bu o’rin o’tgan yilga nisbatan pastroq, innovatsiyalar chiqarish indikatori bo‘yicha 88-o‘rinni egalladi, bu o’rin yilga nisbatan yuqoriroq. O‘zbekiston innovatsiyalar sohasida milliy rivojlanish darajasiga solishtirganda baland yuqori ko`rsatkichga erishgan mamlakatlar qatoridan joy olgan, ya`ni YaIMga nisbatan innovatsiyalarning yuqori samaradorligi qayd etildi. Bundan tashqari, mamlakat mintaqalar bo‘yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida 10 ta Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida 4-o`rinni egalladi. Reytingning 2023-yilgi hisobotida O‘zbekiston “Innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar” (innovation input) subindeksida 72-o‘rinni, “Innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar” (innovation output) subindeksida o‘tgan yilga nisbatan 3 pog‘onaga o‘sib, 88-o‘rinni egalladi. Shuningdek, mamlakat reytingda “Boshqaruv institutlar sifati” (+8), “Infratuzilma” (+1), “Bilim va texnologiya mahsullari” (+2), “Ijodiy mahsulotlar” (+9) yo‘nalishlarida o‘z o‘rnini o‘tgan yilga nisbatan ⁶. Xulosa: Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash mumkinki, keng ma’noda innovatsiya - bu ishlab chiqarish vositalari va jarayonlarini, shuningdek, xizmatlarni innovatsion loyihalash va ularni muvaffaqiyatli bozorga chiqarishga qaratilgan ijodiy harakat ma’nosida inson ijodi jarayoni. Buning asosi ijodiy g’oyalarni shakllan-tirish, samaradorlikni oshirish uchun yangi va takomillashtirilgan rivojlanish darajasida biznes va ijtimoiy tashkiliy faoliyatda innovatsiyalarni ishlab chiqish va muvaffaqiyatli amalga oshirishdir.

⁶ <https://www.spot.uz/oz/2023/10/03/gii-rating/>

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



Ilmiy parklar, biznes-inkubatorlar, texnologiyalar transferi markazlari va boshqa innovatsion infratuzilmalar respublikada innovatsion iqtisodiyot tarmoqlarining faol o'sishini bevosita qo'llab-quvvatlamoqda. Transport, logistika, axborot texnologiyalari, ishlab chiqarish, ekspert konsaltingi, moliya, sug'urta va boshqa ixtisoslashtirilgan xizmatlar kabi qo'shimcha infratuzilma ham zarur. Davlat tomonidan rag'batlantirish orqali ilmiy tadqiqotlarga xorijiy sarmoyalarni jalg etish muhim ahamiyatga ega. Davlat ta'lim dasturlari va ilmiy-tadqiqot institutlarini moliyalashtirish orqali davlat tadqiqotlari samaradorligi va shaffofligini oshirishi kerak. Laboratoriylar, reagentlar va eksperimental vositalar kabi asosiy tadqiqotlar uchun manbalar ochiqlik siyosatiga ustuvor ahamiyat berish kerak. Savdoni erkinlashtirish, xalqaro korporatsiyalarni ilg'or innovatsiyalar bilan kutib olish, mamlakatimizda jahon kompaniyalari uchun ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish ham yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy qismi aniq va tabiiy fanlarga to'g'ri keladi. Ammo bu ish laboratoriya jihozlari, reaktivlar, texnik qurilmalar va asosiy metodologiyani o'z ichiga olgan boshqa asboblarni talab qiladi. Yuqori xarajatlar, import muammolari va yagona platformaning yo'qligi innovatsiyalarga salbiy ta'sir qiladi va keyingi rivojlanishga to'sqinlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://digitalmediakompetentlik.wordpress.com/google-korporatsiyasi-tarixi-va-xozirgi-kunda-jamiyatdagi-orni/>
2. <https://innovation.gov.uz/#news>
3. <https://www.spot.uz/oz/2023/10/03/gii-rating/>
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.:2018, 19-20-betlar
5. <https://siat.stat.uz>
6. https://www.wipo.int/global_innovation_index/en/2023
7. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2020 й., 03/20/630/1101-сон
8. <https://www.brookings.edu/articles/technology-and-the-innovation-economy/>
9. <https://www.cairn.info/revue-journal-of-innovation-economics-2014-2-page-41.htm>
10. <https://www.oecd.org/cfe/tourism/34267902.pdf>
11. <https://killerinnovations.com/understanding-the-innovation-economy-and-its-impact-on-our-world/>
12. <https://emeritus.org/in/learn/important-benefits-of-innovation-in-business/>
13. <https://www.thoughtco.com/economic-inventions-development-and-tycoons-1148145>
14. <https://stormboard.com/blog/understanding-the-innovation-economy>
15. <https://yuz.uz/uz/news/innovatsiya--biz-yoshlarni-kelajakni-yaratishga-ruhlantirmoqda>